
MAKTABLARDA BIRINCHI QO'NG'IROQ CHALINDI. TUMAN HOKIMI ENG CHEKKA MAKTABDAGI TADBIRDA QATNASHDI

Bugun tumanimizda 67 ta maktab va 2 ta kasb-hunar maktablarining barchasida 2022/2023 o'quv yilining ilk qo'ng'irog'i chalindi. Katta quvonchlar bilan kutib o'lingan bu kunda barcha maktablarda tadbirlar o'tkazildi.

Tuman hokimi S. Soliev va tuman IIB boshlig'i X. Tashpo'latov tumandagi eng chekka maktab Yoyilma mahallasidagi 25-umumiy o'rta ta'lim maktabidagi tadbirlarda ishtirok etib, barchani yangi o'quv yili bilan tabrikladi.

Joriy yilda kapital ta'mirlangan ushbu maskanda ushbu o'quv yilida 400 nafar o'quvchilar ta'lim olishadi. Ularning 37 nafari 1-sinf o'quvchilari, 30 nafari esa bitiruvchilar. Tadbir davomida maktabga ilk bor qadam qo'ygan jajji o'g'il-qizlarga Prezident sovg'alari topshirildi.

Tadbir so'ngida birinchi qo'ng'iroqlarning jarangi eshitilgan, barcha sinf o'quvchilari dars xonalarida darsga tayyor bo'ldilar. Shu maktabning o'quvchilarining birinchi darsini tuman hokimi o'tib berdi. Darsda Vatanni nega sevish kerak? yoki biz Vatanni qanday amallarimiz bilan sevamiz? talqinidagi savollar bilan boshladi.

O'quvchilar bilan mustaqillik o'zbek xalqiga began barcha o'zligi to'g'risida fikr yuritdilar. Dars so'ngida, tuman hokimi har bir o'quvchining kelajakda kim bo'lishlarini tinglab, o'zining hayotiy yo'l-yo'riqlarini baham ko'rdi.

2022-09-05 17:46:13